

O‘zbekiston Respublikasi nomidan HUKM

2022 yil mart oyining 30 kuni jinoyat ishlari bo‘yicha Koson tuman sudi o‘z binosida, ochiq sud majlisida, raislik qiluvchi – shu sud sudyasi G.Ostonov, sudya yordamchisi S.Abdullayevning kotibligida, taraflardan: davlat ayblovchisi Koson tuman prokurori yordamchisi O.Sanoyev, O.Mustafayev, sudlanuvchi Mirzayev Mirsoli, Mirzayev Mirabror va ularning himoyachisi advokat U.Aminov, sudlanuvchi Mirzayev Ahror va uning himoyachisi advokat Dj.Haydarov, sudlanuvchi Mirzayev Akbar va uning himoyachisi advokat Sh.Xudoyberdiyevning ishtirokida, Mirzayev Mirsoli Qosimovich, Mirzayev Mirabror Mirsoli o‘g‘li, Mirzayev Ahror Mirsoliyevich va Mirzayev Akbar Mirsoliyevichga nisbatan 1-1809-2205/13-sonli jinoyat ishini ko‘rib chiqdi. Ish hujjatlariga ko‘ra:

Mirzayev Mirsoli Qosimovich 1958 yil 10 may kuni Koson tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek, O‘zbekiston fuqarosi, ma‘lumoti o‘rta-maxsus, oilali, yetti nafar farzandi bor, muqaddam sudlanmagan, nafaqada, Koson tumani Raximso‘fi qishlog‘ida yashaydi, munosib hulq atvorda bo‘lish haqida tilxat ehtiyot chorasi qo‘llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2022 yil 26 yanvar kuni olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 105-moddasi 2-qismining “g,i,m” bandlari bilan

Mirzayev Mirabror Mirsoli o‘g‘li 1996 yil 1 sentabr kuni Koson tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek, O‘zbekiston fuqarosi, ma‘lumoti o‘rta-maxsus, bo‘ydoq, jinoyat ishlari bo‘yicha Koson tuman sudining 2021 yil 7 sentabrdagi hukmiga ko‘ra JK 109-moddasining 2-qismi bilan 4 oy ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan, Koson tuman IIBning 2022 yil 29 mart kunidagi ma‘lumotnomasiga ko‘ra 2 oy 14 kun o‘talmay qolgan jazo muddati mavjud, ishsiz, Koson tumani Raximso‘fi qishlog‘ida yashaydi, 2021 yil 15 noyabr kundan qamoq ehtiyot chorasi qo‘llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2022 yil 26 yanvar kuni olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 105-moddasi 2-qismining “g,i,m” bandlari bilan

Mirzayev Ahror Mirsoli o‘g‘li 1987 yil 11 dekabr kuni Koson tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek, O‘zbekiston fuqarosi, ma‘lumoti o‘rta, oilali, 1) jinoyat ishlari bo‘yicha Koson tuman sudining 2014 yil 8 yanvardagi hukmiga ko‘ra JK 169-moddasi 2-qismining “g” bandi bilan bo‘lgan jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2014 yil 14 noyabrdagi “O‘zbekiston



Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining yigirma ikki yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida"gi Qarorining 6-bandiga asosan tugatilgan, 2) jinoyat ishlari bo'yicha Mirishkor tuman sudining 2017 yil 2 iyundagi hukmiga ko'ra JK 273-moddasi 3-qismining "b" bandi bilan JKning 57-moddasini qo'llab 4 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan, jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2018 yil 25 maydagi ajrimiga ko'ra o'talmay qolgan 2 yil 7 oy 24 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi JKning 74-moddasi tartibida ish haqining yigirma foizini davlat daromadiga ushlab qolgan holda shu muddatga ahloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirilgan, jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2019 yil 19 fevraldagi ajrimiga ko'ra JK 73-moddasi 3-qismining "b" bandiga asosan o'talmay qolgan 1 yil 11 oy 5 kun ahloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan, ishsiz, Koson tumani Raximso'fi qishlog'ida yashaydi, 2021 yil 15 noyabr kundan qamoq ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2022 yil 27 yanvar kuni olgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 104-moddasi 2-qismining "v,k,l" bandlari bilan

Mirzayev Akbar Mirsoli o'g'li 1986 yil 22 mart kuni Koson tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, oilali, uch nafar farzandi bor, 1) jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2012 yil 2 noyabrdagi ajrimiga ko'ra JK 168-moddasi 2-qismining "b" bandi bilan bo'lgan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2011 yil 5 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining o'n to'qqiz yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida"gi Qarorining 2 va 7-bandlariga asosan tugatilgan;

2) jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2014 yil 15 maydagi hukmiga ko'ra JK 169-moddasi 3-qismining "a" bandi bilan 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan, jinoyat ishlari bo'yicha Muborak tuman sudining 2015 yil 1 dekabrda ajrimiga ko'ra o'talmay qolgan 3 yil 11 oy 15 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi JKning 74-moddasi tartibida ish haqining 20 foizi davlat daromadiga ushlab qolgan holda shu muddatga ahloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirilgan, jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2016 yil



15 noyabrdagi ajrimiga ko'ra o'talmay qolgan 2 yil 11 oy 10 kun ahloq tuzatish ishlari jazosidan JKning 73-moddasi tartibida muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan,

3) jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2021 yil 7 sentabrdagi hukmiga ko'ra JK 109-moddasining 2-qismi bilan 4 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan, jinoyat ishlari bo'yicha Muborak tuman sudining 2021 yil 11 oktabrdagi ajrimiga ko'ra o'talmay qolgan 1 oy 14 kun jazosidan JKning 73-moddasi tartibida muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan, Koson tumanidagi "Asilbek Akbar Mirzo" MCHJ raxbari, Koson tumani Raximso'fi qishlog'ida yashaydi, 2021 yil 15 noyabr kundan qamoq ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2022 yil 27 yanvar kuni olgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 104-moddasi 2-qismining "v,k,l" bandlari bilan ayblangan.

Sud, sudlanuvchilar va guvohning suddagi ko'rsatuvlarini eshitib, prokuror va himoyachining muzokara nutqlarini tinglab, ish bo'yicha to'plangan dalillarni atroflicha o'rganib, muhokama qilib quyidagilarni,

A N I Q L A D I :

Mirzayev Mirsoli Qosimovich 2021 yil 30 oktabr kuni soat 14:00larda yashash uyi hovlisida turmush o'rtog'i Kesimova Ra'noni ishlatib turgan vaqtida, uni oldiga o'zining farzandi Mirzayev Ahror Mirsoliyevich kelib, otasi M.Mirzayevga "ota siz nega onam Ra'noni loy ishlarida ishlatayapsiz" deb, shu yerda otasi M.Mirzayev bilan og'zaki tortishib janjallashib qolishgan vaqtlarida, otasi M.Mirzayev va ukasi Mirabror Mirzayevlar, Mirzayev Ahrorga nisbatan qasddan tan shikasti yetkazish maqsadida, bir guruhga birlashib, Mirzayev Mirsoli shu guruhga raxbarlik qilib, shu yerdan qo'lga tergov harakatlari jarayonida topishni imkoni bo'lmagan taporni olib, taporning uchki qismi bilan o'g'li Mirzayev Ahror ni chap yelka sohasiga urib, unga nisbatan tan shikasti yetkazgan vaqtida, bundan foydalangan guruh aktiv a'zosi Mirzayev Mirabror qo'lga shu yerdan tergov harakatlari jarayonida topishni imkoni bo'lmagan shoxani olib, shoxani tig' qismi bilan akasi Mirzayev Ahrorni chap qo'l va yuz sohasiga bir necha marotaba sanchib olib, A.Mirzayevga nisbatan o'rtacha og'ir tan shikasti yetkazishgan.

Sudlanuvchi Mirzayev Mirabror Mirsoli o'g'li 2021 yil 30 oktabr kuni soat 14:00larda Mirzayev Ahror Mirsoliyevich kelib, otasi M.Mirzayevga "ota siz nega onam Ra'noni loy ishlarida ishlatayapsiz" deb, shu yerda otasi M.Mirzayev bilan og'zaki tortishib janjallashib qolishgan vaqtlarida, otasi Mirzayev Mirsoli va Mirzayev Mirabrorlar akasi Mirzayev Ahrorga nisbatan qasddan tan shikasti yetkazish maqsadida, bir guruhga birlashib, Mirzayev



Mirsoli shu guruhga raxbarlik qilib, shu yerdan qo'liga tergov harakatlari jarayonida topishni imkoni bo'lmagan taporni olib, taporning uchki qismi bilan o'g'li Mirzayev Ahrorni chap yelka sohasiga urib, unga nisbatan tan shikasti yetkazgan vaqtida, bundan foydalangan guruh aktiv a'zosi Mirzayev Mirabror qo'liga shu yerdan tergov harakatlari jarayonida topishni imkoni bo'lmagan shoxani olib, shoxani tig' qismi bilan akasi Mirzayev Ahrorni chap qo'l va yuz sohalariga bir necha marotaba urib, sanchib olib, A.Mirzayevga nisbatan o'rtacha og'ir tan shikasti yetkazishgan.

Sudlanuvchi Mirzayev Ahror Mirsoli o'g'li 2021 yil 30 oktabr kuni soat 14:00larda yashash uyi hovlisida ishlab turgan otasi M.Mirzayevga "ota siz nega onam Ra'noni loy ishlarida ishlatayapsiz" deb, shu yerda otasi M.Mirzayev bilan og'zaki tortishib janjallashib qolishgan vaqtlarida, otasi M.Mirzayev va ukasi Mirabror Mirzayevlar, uning turli joylariga urib, unga nisbatan o'rtacha og'irlikdagi tan shikasti yetkazishgan vaqtlarida, Mirzayev Ahror otasi Mirzayev Mirsolini boshidan va ukasi Mirabrori tanasini to'g'ri kelgan joylaridan o'zining qo'lida bo'lgan tergov harakatlari jarayonida topishni imkoni bo'lmagan temir jism bilan urib, ularga nisbatan yengil tan shikasti yetkazgandan so'ng, ularga bir o'zining kuchi yetmaganligi sababli akasi Mirzayev Akbar Mirsoliyevichni telefon orqali chaqirib, unga otasi Mirsoli va ukasi Mirabrorlar uni urib, unga nisbatan tan jaroxati yetkazganligini, tezda yashash uyiga yetib kelishligini aytgan vaqtida, Mirzayev Akbari otasi Mirzayev Mirsoli va ukasi Mirabrorlar bilan oldindan yer masalasida kelishmovchiliklari bo'lganligi Mirzayev Akbar uni yashash uyiga tezda shu kuni soat 14:30larda yetib kelib, ukasi Mirzayev Ahror bilan bir guruhga birlashib, o'zi esa shu guruhga raxbarlik qilib, otasi M.Mirzayevni hovlida turganligini ko'rib, ukasi Mirzayev Ahrorga "sen Mirabrori tinchitgin men bunisini tinchitaman" deb, ukasi Mirzayev Ahror kichkina ukasi Mirabror Mirzayevni orqasidan borib, o'zining qo'lida bo'lgan tergov harakatlari jarayonida topishni imkoni bo'lmagan shoxa bilan uni tanasini to'g'ri kelgan joylaridan urib, unga nisbatan yengil tan jarohati yetkazgan vaqtida, uning topshirig'iga asosan akasi Mirzayev Akbar o'zi bilan olib kelgan tergov harakatlari davomida topishni imkoni bo'lmagan tayoq bilan otasi Mirzayev Mirsolini tanasini to'g'ri kelgan joylariga urib, otasi M.Mirzayevga nisbatan hayoti uchun xavfli bo'lgan og'ir tan shikasti yetkazishgan.

Sudlanuvchi Mirzayev Akbar Mirsoli o'g'li 2021 yil 30 oktabr kuni soat 14:30larda otasi Mirzayev Mirsoli Qosimovich yashash uyi hovlisida ishlab turgan vaqtida, uni oldiga o'g'li Mirzayev Ahror Mirsoliyevich kelib, otasi M.Mirzayevga "ota siz nega onam Ra'noni loy ishlarida ishlatayapsiz" deb, shu yerda otasi M.Mirzayev bilan og'zaki tortishib janjallashib qolishgan vaqtlarida, otasi M.Mirzayev va ukasi Mirabror Mirzayevlar, Mirzayev Ahrorni turli joylariga urib, uning tanasiga o'rtacha og'irlikdagi tan shikasti yetkazishgan vaqtlarida, Mirzayev Ahror akasi Mirzayev Akbar Mirsoliyevichni telefon orqali chaqirib, unga otasi Mirsoli va ukasi



Mirabrorlar uni urib unga nisbatan tan jarohati yetkazganligini aytgan vaqtida, Mirzayev Akbar Mirsoliyevichni otasi Mirzayev Mirsoli va ukasi Mirabrorlar bilan oldindan yer masalasida kelishmovchiliklari bo'lganligi sababli ukasi Mirzayev Ahrorni taklifiga ko'ra uni yashash uyiga kelib, u bilan bir guruhga birlashib, o'zi esa shu guruhga raxbarlik qilib, otasi M.Mirzayevni hovlida turganligini ko'rib, ukasi Mirzayev Ahrorga "sen Mirabrorning tinchitgin men bunisini tinchitaman" deb, ukasi Mirzayev Ahror kichkina ukasi Mirabror Mirzayevni orqasidan quvib ketgan vaqtida, u o'zi bilan olib kelgan tergov harakatlari davomida topishni imkoni bo'lmagan tayoq bilan otasi Mirzayev Mirsolini orqa o'ng tomon ko'krak sohasiga, chap oyoq boldir sohasiga va tanasini to'g'ri kelgan joylariga urib, otasi M.Mirzayevga nisbatan og'ir tan shikasti yetkazishgan.

Sudlanuvchi Mirzayev Mirsoli Qosimovich sud majlisida aybiga to'liq iqrorlik bildirib, sudlanuvchi Mirzayev Akbar, Mirzayev Ahror va Mirzayev Mirabrorlar uning o'g'illari bo'lishligini, o'g'li Mirzayev Akbar bilan uning va kichkina o'g'li Mirzayev Mirabror bilan bir necha yillardan buyon yer masalasi bo'yicha kelishmasdan kelayotganliklarini, 2021 yil 12 may kuni o'g'li Mirzayev Akbar dalada yer masalasida kichkina o'g'li Mirzayev Mirabror va uni urib, ularga tan jarohati yetkazganligi sababli jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining hukmiga ko'ra o'g'illari Mirzayev Mirabror va Mirzayev Akbarlar sudlanganligini, o'g'li Mirzayev Akbar sud tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqib kelganligini, Mirzayev Akbar ulardan alohida yashashligini, o'rtanacha o'g'li Mirzayev Ahror turmush o'rtog'i ya'ni kelini Begimova Tojixol bilan bir hovlida yashashliklarini, 2021 yil 30 oktabr kuni soat 11-00larda yashash hovlisidagi qo'y qo'tonni tagida ahlatlar ko'payib ketganligi sababli kichkina o'g'li Mirzayev Mirabrorga qo'tondan qo'ylarni olib chiqib ko'chaga boqib turishligini, qo'tonni tagini onasi Kesimova Ra'no tozalashligini, so'ng qo'ylarni qo'tonga olib kelishligini aytganligini, shunda kichkina o'g'li Mirabror qo'ylarni qo'tondan chiqarib ko'chaga boqish uchun olib ketganligini, turmush o'rtog'i Ra'noga qo'y qo'tonni tagini tozalashini, o'zi qo'tonda ikki aravacha nuri ya'ni go'ng borligini aytganligini, shunda turmush o'rtog'i Ra'no qo'y qo'tonni qiylarini aravaga ortib tozalayotgan vaqtida, qo'tonga kelini Begimova Tojixol kirib ketganligini, bu vaqtda o'rtanacha o'g'li Mirzayev Ahror uyda bo'lmaganligini, shunda kelini Tojixol turmush o'rtog'i Ra'noni ishlagani qo'ymasdan uni yashash uyi tomonga olib ketayotganligini ko'rib, kelini Tojixolga nima qilayotganligini, nega turmush o'rtog'i Ra'noni olib ketayotganligini, u ishlayotganligini aytganida kelini Tojixol unga "bu xonadonlarni tog'alarim qurgan, bu yerda qaynonam ishlamaydi" deganida, u kelini Tojixolga "kelin Ra'no meni turmush o'rtog'im, bu ro'zg'orda ro'zg'or tebratish uchun hamma ishlaydi, bu xonadonlarni o'zim mehnatim bilan qurganman" deb, u bilan og'zaki tortishib qolganligini, shu kuni soat 13:30larda esa o'rtanacha o'g'li Mirzayev Ahror kelib "senlarni o'ldiraman, nega onam Ra'noni ishlatasanlar" deb



ularga dag'dag'a qilib, qo'liga shu yerdagi krovat oldidan bir temir jismni olganligini, uning o'zi esa o'zini himoya qilish uchun shu yerdan qo'liga bir singan beldasta bo'lagini olganligini, shu vaqtda o'g'li Ahror uning yoniga yugurib kelib, qo'lidagi temir jism bilan o'ng ko'ziga, boshiga, chap bilak va o'ng bilak sohasiga va qoriniga ko'krak soha aralash urib tashlaganligini, shunda uning qo'lidagi beldastani singan qirrali qismlari o'g'li Ahrorni qo'llarini kesib yuborganligini, shunda uni qo'li qonab qolganligini, Ahror darvoza tomonga ketib, qo'l telefonidan katta o'g'li Mirzayev Akbarga telefon qilib chaqirganligini, bu vaqtda kenja o'g'li qo'ylarga shoxa bilan tikan tashlab turganligini, oradan 20 daqiqalar o'tib u ko'cha tomonga qaraganida katta o'g'li Akbar qo'liga bir katta qora rangli tayoq olib, telefondan gaplashib kelayotganligini ko'rganligini, ko'chada esa bir tez tibbiy yordam avtomashinasi kelib to'xtaganligini va ular o'sha yerda o'g'li Ahrorni qo'lini ko'rsatganligini va bir ozdan so'ng o'g'li Akbar qo'lidagi katta tayog'i bilan kichkina o'g'li Mirabrorni urayotganligini ko'rganligini, Ahror esa qo'lidagi shoxa bilan o'g'li Mirabrorni orqasidan quvib ketganligini, Mirabror esa devordan sakrab qochib ketganligini, bu vaqtda turmush o'rtog'i Ra'no ham hovlida bo'lganligini, o'rtanCHA o'g'li Ahror katta o'g'li Akbarga "bunisini urish kerak, hammasini shu boshlab yuribdi" deb uni qo'li bilan ko'rsatganida, o'g'li Akbar u tomonga qarab yugurganligida undan qochmoqchi bo'lganida, u qo'lidagi katta tayog'i bilan o'ng biqin sohasidan urganligini, shunda uning nafasi qaytib yerga yiqilganligini va Akbarga "meni urma-urma" deb yolvorib yig'lay boshlaganligini, Akbar unga "sen meni qamattirding" deb, qo'lidagi tayog'i bilan chap oyoq boldir sohasiga ikki marotaba zarb bilan urib oyoqlarini sindirib tashlaganligini, Ahror kelib akasi Akbarga "bo'ldi urma endi o'lib qoladi, o'g'li Mirabror qochib qoldi, birinchi uni o'ldiramiz, keyin esa bunisini o'ldiramiz" deb ko'chaga chiqib ketishganliklarini, qovurg'alari va oyoqlari singanligi sababli o'rnidan tura olmaganligini, cho'ntagidan qo'l telefonini olib IIBning "102" va TTYoning "103" qisqa telefonlariga qo'ng'iroq qilib holat yuzasidan xabar olganligini, shundan so'ng shifoxonada yotib davolanib chiqqanligini, hozirgi kunda esa o'g'illari Akbar va Ahrorlar bilan bir birlaridan o'zaro kechirim so'rab, yarashib ketishganliklarini, qilmishidan pushaymonligini bildirib, suddan qonuniy yengillik berishni so'radi.

Sudlanuvchi Mirzayev Mirabror Mirsoli o'g'li sud majlisida aybiga to'liq iqrorlik bildirib, Mirzayev Akbar va Mirzayev Ahrorlar akalari bo'lishini, akasi Akbar otasi Mirzayev Mirsoli va u bilan bir necha yillardan buyon yer masalasi bo'yicha kelishmasdan kelayotganligini, 2021 yil 12 may kuni akasi Mirzayev Akbar dalada yer masalasida u bilan otasi Mirzayev Mirsolini urib ularga nisbatan tan jarohati yetkazganligi sababli u va akasi Akbarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JK 109-moddasining 2-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilganligini, ushbu jinoyat ishi jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudi tomonidan ko'rib chiqilganligini, unga 4 oy ozodlikni cheklash jazosi, akasi Mirzayev Akbarga esa 4 oy ozodlikdan



mahrum qilish jazosi berilganligini, akasi ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqib kelganligini, 2021 yil 30 oktabr kuni soat 11:00larda otasi unga qo'ylarni chiqarib boqib turishini, qo'y qo'tonni onasi Ra'no tozalashini aytganligi sababli qo'ylarni ko'chaga olib chiqib ketganligini, shu kuni soat 14:00larda ko'chada qo'ylarni boqib turganida, otasi Mirsoli bilan akasi Mirzayev Ahror ikkalasini bir-birlariga baqirayotgan tovushini eshitganligini va nima gapligini bilish uchun qo'ylarni haydab kelib qo'tonga qamaganligini, akasi Mirzayev Ahror otasiga "seni onangni palon qilay, sen terpilasan, mana sen akam Akbarni qamatgan bo'lsang men uni qamoqdan chiqarib keldim" deb, otasi so'ri oldida o'tirgan kravatni oyog'i bilan tepib, qo'li bilan mushtlab urib otasini xaqorat qilganligini, shunda uning jahli chiqib, qo'lga shu yerdan bir tayoqni olib akasi Mirzayev Ahrorni urmoqchi bo'lganida, akasi Mirzayev Ahror ham qo'lga shu yerdan bir temir bo'lagini olib otasini o'ng qoshini ustidan va tanasining to'g'ri kelgan joylariga urib tan jarohati yetkazganligini, otasini o'ng qosh usti yorilib qon oqa boshlaganligini, shunda akasini ajratmoqchi bo'lganida, akasi Ahror qo'lini mushti bilan chap tomon bosh sohasiga urib tashlaganligini, shunda u akasidan qochib ko'chaga chiqqanligini, uning orqasidan otasi ham chiqib kelganligini, shunda bu haqida himoyachisi U.Aminovga qo'ng'iroq qilib, akasi Mirzayev Ahror otasi bilan uni urib tashlaganligini aytganida, U.Aminov unga janjalga aralashmasligini, undan qochib qo'l telefonini kamerasiga olishini aytganligini, keyin u molxona tomonga borib qo'ylarga shoxa bilan yantoq tashlayotgan vaqtida, ko'chada akasi Mirzayev Ahror katta akasi Akbar bilan turganligini, ularni yoniga esa tez tibbiy yordam avtomashinasi kelganligini ko'rganligini, ularga e'tibor bermasdan qo'ylariga qarashda davom etganligini, bu vaqtda otasi Mirsoli hovlida bo'lganligini, birozdan so'ng akasi Mirzayev Ahror katta akasi Akbar hovliga qo'lida 2 metrlik katta jiydani tayog'i bilan kirib kelganligini va shu tayoq bilan otasini urish uchun uni xaqoratlab oldiga borayotganida, bu holatni qo'l telefonini kamerasiga olmoqchi bo'lganida, akasi Mirzayev Akbar kichkina akasi Ahrorga baqirib, "Mirabrorni qo'l telefoniga kameraga olgani qo'yma, men bunisini o'zim tinchitaman" deb, otasi turgan tomonga yugurganini, akasi Ahror esa qo'lga shu yerdan shoxani olib, "endi senlarni o'ldiraman, qamalsam men ham qamalib ketay"-deb orqasidan yugurgan vaqtida, katta akasi Mirzayev Akbar otasini orqasidan va oyoqlaridan tayoq bilan urib yerga yiqitib tashlaganligini, akasi Ahror uning orqasidan qo'lidagi shoxa bilan "o'ldiraman" deb, quvlaganida, unga "meni urmanglar" deb hovlidan devor tomonga qochib, devor ustiga chiqib qochayotganida, akasi Ahror qo'lidagi shoxasini temir qismi bilan orqasidan urib tashlaganligini, shunda u yerga yiqilib tushganida, akasi Ahror uning tanasini turli joylariga qo'lidagi shoxa bilan urib jarohat yetkazganligini, shundan so'ng u ko'chaga qochib chiqib, Raximso'fi qishlog'i markazi tomonga yugurganligini va profilaktika inspektor Sh.Ziyodullayevga telefon qilib, holat xaqida xabar berganligini Sh.Ziyodullayev unga "markazga



TTYoga kelgin men hozir boraman” deb aytganligini, shundan so’ng u tez tibbiy yordam shifoxonasiga borganligini, olgan tan jarohatlari tufayli shifoxonada yotib davolanib chiqqanligini, hozirgi kunda esa akalari Akbar va Ahrorlar bilan bir birlaridan o’zaro kechirim so’rab, yarashib ketishganliklarini qilmishidan pushaymonligini bildirib, suddan qonuniy yengillik berishni so’radi.

Sudlanuvchi Mirzayev Ahror Mirsoli o’g’li sud majlisida aybiga to’liq iqrorlik bildirib, Koson tumani Raximso’fi qishlog’ida turmush o’rtog’i, otasi-onasi va ukasi Mirabror bilan bir hovlida lekin alohida xonada yashab kelishligini, otasi va ukasi Mirabror bilan gaplashmasligini chunki otasi va ukasi Mirabror bir taraf akasi Akbar bir taraf bo’lib yer masalasida o’zaro kelishmasliklarini, otasi sharoit qilib bermasdan doim onasini urib haydab yuborganligi sababli ular bilan gaplashmasdan ketganligini, 2021 yil 30 oktabr kuni soat 8:00larda yangi qurilayotgan uyiga ustalardan xabar olish uchun borganligini, shu kuni soat 13:30larda ustalarga ovqat olib ketish uchun uyiga kelganida turmush o’rtog’i unga otasi yana kasal onasini qo’ylarini tagini tozalatib ishlatganligini, turmush o’rtog’i onasini ishlatgani qo’ymasdan olib ketganida uni otasi Mirsoli xaqorat qilib urmoqchi bo’lganligini aytganida, u otasiga “ota nima sababdan siz kasal onamni ishlatayapsiz, men o’zi yaqinda onamni davolatib keldimku, siz onamni ishlatishga haqqingiz yo’q, ro’zg’orimiz alohida bo’lsa, onam men bilan yashasa” deb aytganligini, shunda otasi unga “uy meniki, onang meni uyimda bo’lgandan keyin ishalataman, bo’lmasa onangni olib meni uyimdan yo’qol” deb aytganligini, shunda u otasiga “onam ham meni ham bu hovlida yashashga xaqqim bor” deb aytganida, otasi uni so’kib urmoqchi bo’lib yoniga kelganida, ukasi Mirabror otasini qo’liga bir taporni keltirib berganligini va o’zi yugurib borib, qo’liga shoxa olib kelganligini, shunda otasi qo’lidagi tapor va pichog’i bilan urmoqchi bo’lib kelayotganida u qo’l telefoniga ularni videokameraga olib orqaga qarab qochganida, otasi uning kiyimini ustidan qo’lidagi tapori bilan chap yelkasini orqa tomonidan urib yuborganligini, shunda ham u orqaga qarab yuraverganida, ukasi Mirabror qo’lidagi shoxani qorniga tiqmoqchi bo’lib unga tashlanganida, uni shoxasini o’ng qo’li bilan to’sganida, uni qo’lidagi shoxasini temir qismi qo’lini old va orqa kaft sohalariga kirib qo’li qonay boshlaganligini, shunda ham ukasi Mirabror yana shoxani yuziga sanchib olganligini, otasi esa uni urmoqchi bo’lganida, shu yerda oyog’i temirlarga urilib yiqilganligini, uning bu holatini turmush o’rtog’i Begimova Tojixol uni ko’l telefoniga kamerasiga va fotosuratiga tushurib, baqirib yig’lab u yerdan bu yerga yugura boshlaganligini, otasi bilan ukasi Mirabror unga “seni o’ldiramiz” deb yana yoniga kelib urmoqchi bo’lib kelayotganida u holsizlanib yiqilganligini, yana harakat qilib o’rnidan turib, turmush o’rtog’ini oldiga borganida, u qo’lidan kelayotgan qonni bir latta bo’lagi bilan o’rab bog’lab qo’yganligini, shunda u akasi Mirzayev Akbarga telefon qilib, tez yordam mashinasida shifokor chaqirishini, otasi bilan ukasi Mirabror uni urib jarohat yetkazganligini,



o'ng qo'li kaftini paylari kesilib, teshilib qon to'xtamayotganligini aytganidan so'ng oradan yarim soatlar vaqt o'tib, soat 14:30larda akasi Mirzayev Akbar kelganligini, uning orqasidan shifokorlar ham kelganligini va uni tez yordam mashinasi mindirishganliklarini, akasi Akbar esa uning yoniga o'tirganligini shifokorlar uni to'g'ri Qarshi shahridagi tez tibbiy yordam shifoxonasiga olib borishganliklarini, shifokorlar uning o'ng qo'l kaft sohasini yuvib, tikib qo'yishganliklarini, voqea kuni otasi va ukasi Mirabrorni hech kim urmaganligini, ular jarohatlarini qayerdan olganligini bilmasligini, hozirgi kunda esa ukasi Mirzayev Mirabrор va otasi Mirzayev Mirsoli Qosimovichlar bilan bir birlaridan o'zaro kechirim so'rab, yarashib ketishganliklarini, qilmishidan pushaymonligini bildirib, suddan qonuniy yengillik berishni so'radi.

Sudlanuvchi Mirzayev Akbar Mirsoli o'g'li sud majlisida aybiga qisman iqrорlik bildirib, sudlanuvchilar Mirzayev Mirsoli otasi, Ahror bilan Mirabrор ukasi bo'lishini, otasi ularga qaramaganligi va boqmaganligi hamda xar doim janjal qilganligi sababli u 8 yoshidan uydan chiqib ketib, tog'alarini uyida katta bo'lib maktabni bitirganidan so'ng o'zi daladan yer olib, mehnat qilib alohida 3 xonali uy qurib, 2012 yilda uylanganligini, 3 nafar farzandlari va turmush o'rtog'i bilan alohida yashab kelayotganligini, shunday bo'lsada o'zi hujjatlashtirib olgan yerlarni otasi Mirzayev Mirsoli va ukasi Mirzayev Mirabrорlar undan tortib olmoqchi bo'lib bir necha marotaba janjal qilib, uni urib tan jarohati yetkazganligini, 2021 yil 12 may kuni soat 10:00larda otasi Mirzayev Mirsoli va ukasi Mirzayev Mirabrорlar uning dalasiga bostirib borib, ukasi Mirzayev Mirabrор unga tan jarohati yetkazganligi sababli va o'zlarini jinoyatlarini yopish maqsadida unga tuhmat qilganligi sababli ukasi Mirabrор ikkalasiga O'zbekiston Respublikasi JK 109-moddasining 2-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, ushbu jinoyat ishi jinoyat ishlari bo'yicha Koson tumani sudi tomonidan ko'rib chiqilib, ukasi Mirabrorga 4 oy ozodlikni cheklash jazosi, unga esa 4 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi berganligini, 2021 yil 11 oktabr kuni ozodlikka chiqib kelganligini, 2021 yil 30 oktabr kuni soat 14:00larda solyarka yoqilg'isi olish uchun daladan Raximso'fi qishlog'ini markaziga borganligini, markazda solyarka yoqilg'isi bo'lmaganligi sababli piyoda uyga qaytayotgan vaqtida uning qo'l telefoniga ukasi Mirzayev Ahror qo'ng'iroq qilib, tezda yashash uyiga tez tibbiy yordam mashinasi bilan IIB xodimlarini olib borishini, uni otasi bilan ukasi Mirabrорlar urib, tan shikasti yetkazganligini, uni qo'lidan qon to'xtamayotganligini aytganligini, shunda u shifoxonada ishlovchi amakvachchasi Qosimov Sarvarga qo'ng'iroq qilib, unga tezda tez tibbiy yordam avtomashinasi bilan shifokorni ukasi Ahrorni yashash uyiga yuborishni, u yerda otasi bilan ukasi Mirabrорlar uni urib qo'llarini kesib tashlaganligini aytganligini va o'zi piyoda ukasi Ahrorni yashash uyiga yaqinlashganida, profilaktika inspektori Sh.Ziyodullayevga ham ukasi Ahrorni uyda otasi bilan ukasi Mirabrорlar urganligini, uyga yetib kelishlarini aytganligini, u ukasi Ahrorni



uyiga yaqinlashganida tez tibbiy yordam avtomashinasi yetib kelganligini, shunda u tez tibbiy yordam xodimiga ko'chada kutib turishligini, ukasi Ahrorni o'zi olib chiqishini aytib, ukasi Ahrorni hovlisiga darvozadan qaraganida u yerda hech kim ko'rinmaganligini, shunda u orqa xovli tomonga o'tganida otasi Mirsoli hovlida oqsoqlanib yurganligini, ukasi Ahrorni esa o'ng qo'li bog'langan qo'lidan qon oqib turganligini ko'rib, ukasi Ahrorni ko'tarib olganligini tez tibbiy yordam mashinasiga olib chiqqanligini, keyin ukasi Ahrorni tez tibbiy yordam mashinasida Raximso'fi shifoxonasiga olib borganligini, uyda otasi Mirsolini ham oqsoqlanib yurganligini ko'rganligi uchun shifokorlarga ikkinchi tez tibbiy yordam mashinasini otasini uyiga borishligini, u yerda otasi Mirsolini ham oqsoqlanib yurganligini ko'rganligini aytganida, shifokorlar otasini uyiga tez tibbiy yordam mashinasini jo'natganligini, keyin shifokorlar Damas avtomashinasi bilan ukasi Ahror ikkalasini to'g'ri Qarshi shaharidagi tez tibbiy yordam shifoxonasiga olib borishganida, Ahrorni o'ng qo'l kaft sohasini shifokorlar yuvib, tikib qo'yishganligini, shifoxonaga profilaktika inspektori Z.Abduraxmonov borib, ulardan bo'lgan holatlar yuzasidan tushuntirish xati olganligini, ukasi Ahror shifoxonada yotmasligini aytganligi sababli soat 20:00larda ikkalasi uylariga qaytib kelishganliklarini, voqea kuni otasi yoki ukasi Mirabrorni urmaganligini, shunday bo'lsada hozirgi kunda esa ukasi Mirzayev Mirabrur va otasi Mirzayev Mirsoli Qosimovichlar bilan bir birlaridan o'zaro kechirim so'rab, yarashib ketishganliklarini qilmishidan pushaymondaligini bildirib, suddan qonuniy yengillik berishni so'radi.

Guvoh B.Jomurodov sud majlisida, Koson tumani tez tibbiy yordam bo'limiga qarashli Raximso'fi filialida feldsher bo'lib ishlashligini, 2021 yil 30 oktabr kuni navbatchi bo'lganligini, shu kuni soat 14:30larda Raximso'fi qishlog'ida yashovchi Mirzayev Mirsolini yashash uyida janjal bo'lganligi va ularda jarohat olgan fuqarolar borligini aytishganligi sababli tez tibbiy yordam mashinasi haydovchisi bilan Mirzayev Mirsolini yashash uyi oldiga borgan vaqtida, ularni yashash uyi oldida hech kim bo'lmaganligini, shunda ular tez tibbiy yordam mashinasini qaytarib olib, ularni qidirayotgan vaqtlarida Mirzayev Mirsolini katta o'g'li Mirzayev Akbar ko'cha tomondan kelib qolganligini, shunda ular Mirzayev Akbardan nima gapligini so'rganlarida u hech narsadan xabari yo'qligini, unga ham ukasi Mirzayev Ahror qo'ng'iroq qilib uni chaqirganligini aytganida, haydovchi ikkalasi uning otasi Mirzayev Mirsolini yashash uyiga kirib ularni ahvolidan xabar olmoqchi bo'lganlarida Mirzayev Akbar o'zi yashash uyiga kirib nima gapligini bilib chiqishligini, ularga ko'tib turishligini aytib, o'zi otasi Mirzayev Mirsolini yashash uyiga kirib ketganligini, oradan 5 yoki 10 daqiqalar o'tib Mirzayev Akbar ukasi Ahrorni yelkasidan suyab olib chiqqanligini, shu vaqtda u Mirzayev Ahrorga birinchi yordam ko'rsatganligini va uni ahvoli o'rtacha og'irlikda qo'lidan ko'proq qon yo'qotganligini bilganligini va Ahror bilan Akbar ikkalasini Raximso'fi



qishlog'idagi tez tibbiy yordam bo'limiga olib bormoqchi bo'lganlarida, Mirzayev Akbar ukasi Ahrorni Qarshi shaharidagi tez tibbiy yordam shifoxonasiga olib borishni aytganligi sababli uni Qarshi shahridagi tez tibbiy yordam shifoxonasiga olib borishganliklarini, oradan 20 daqiqalar o'tib, Mirzayev Akbarni otasi Mirzayev Mirsoli bilan uni kichkina ukasi Mirabrorlar ham Qarshi shahridagi tez tibbiy yordam shifoxonasiga tan shikasti olishganligi sababli borishganliklarini, shundan keyin ular Mirzayevlar oilaviy bir-birlari bilan janjal qilganligini bilishganliklarini va ularni shifoxonada qoldirib, o'zlari tez tibbiy yordam mashinasi bilan ish joylariga qaytishganliklarini bayon qildi.

Guvoh T.Begimova sud majlisida, yashash xovlisida qaynotasi Mirzayev Mirsoli, qaynonasi Kesimova Ra'no, qayni ukasi Mirzayev Mirabror va turmush o'rtog'i Mirzayev Axror Mirsoliyevichlar bilan birgalikda bir xovlida yashab kelishini, qayniakasi Mirzayev Akbar ulardan aloxida ro'zg'or qilib, 2012 yilda boshqa uy qurib chiqib ketgani, shundan buyon qayniakasi Mirzayev Akbar ularni yashash uyiga kelib ketmasligini, qayniakasi Mirzayev Akbarni o'zini aloxida yashash uyi oldida yerlari bo'lib, shu yerlarni ham qaynotasi Mirzayev Mirsoli olish uchun u bilan ham bir necha marotaba yer masalasi bo'yicha kelishmasdan janjal qilib, uni xam yaqinda qamatganligidan xabari borligini, 2021 yil 30 oktabr kuni yashash uyida bo'lganini, shu kuni turmush o'rtog'i Mirzayev Axror uchastkasidagi ustalardan xabar olish uchun soat 8-00larda uydan chiqib ketganini, o'zi esa xovlida qolib o'zini ishlarini qilganini, shu kuni qaynonasi Ra'noni sog'ligi bo'lmaganligi sababli ertalab ham choy ichmaganini, tushlik vaqtida ya'ni soat taxminan 12-00larda qarasa qaynotasi Mirsoli qaynonasi Ra'noga u kasal bo'lsada molxonani go'nglarini aravachada tashittirib ishlatayotganligini ko'rganini va qaynonasi Ra'noni oldiga borib, u kishiga bu ishlarni bajarmasligini, u kishini o'zi sog'ligi bo'lmasdan yurganligini, yaqinda davolanib chiqqanliklarini aytib, tushlik qildirish uchun yashash uyiga olib kelayotganida, qaynotasi Mirsoli bu xolatni ko'rib unga gapirib, qaynonasi Ra'noni olib ketmasligini, u molxonani tozalashini aytganini, shunda o'zi qaynotasi Mirsoliga qaynonasi tushlik qilib olishini aytganida, qaynotasi baqir-chaqir qilib, uni urmoqchi bo'lib qo'lidagi kachkorti bilan kelganini, shunda o'zi qaynonasi Ra'noni uyiga olib kirib ketganini va u kishiga ovqatlarini suzib berib ovqatlantirganini, turmush o'rtog'i Axror uyga soat 13-30larda kelgandan so'ng o'zi turmush o'rtog'i Axrorga qaynotasi Mirsoli yana kasal qaynonasi Ra'noga qo'ylarini tagini tozalatib ishlatganligini, qaynonasi Ra'noni ishlatgani qo'ymasdan olib kelsa uni qaynotasi Mirsoli urmoqchi bo'lganligini aytganini, shunda turmush o'rtog'i Axror otasi Mirsolini yoniga borib unga nima sababdan onasi Ra'noni kasal holatida ishlatganligini so'rab gapirganida, otasi Mirsoli turmush o'rtog'i Axrorga "uy meniki, onang meni uyimda bo'lgandan keyin ishlataman, bo'lmasa onangni olib meni uyimdan yo'qol" deb aytganini, shunda turmush o'rtog'i Axror otasi Mirsoliga "onam Ra'noni xam meni xam bu xovlida



yashashga xaqim bor” deb aytganida, otasi Mirsoli turmush o’rtog’i Axrorni so’kib haqorat qilganini va urmoqchi bo’lib turmush o’rtog’i Axrorni yoniga kelganida, qayni ukasi Mirabror otasi Mirsolini qo’liga bir taporni keltirib berganini va o’zi yugurib borib, qo’liga shoxa olib kelganini, shunda qaynotasi Mirsoli turmush o’rtog’i Axrorni qo’lidagi tapor va pichog’i bilan urmoqchi bo’lib kelaverganini, turmush o’rtog’i Axror qo’l telefoniga ularni videokameraga olib orqaga qarab yuraverganida, qaynotasi Mirsoli turmush o’rtog’i Axrorni kiyimini ustidan qo’lidagi tapori bilan chap yelkasini orqa tomonidan urib tashlaganini, ularni janjalini qaynonasi Ra’no ajratmoqchi bo’lganida qaynotasi Mirsoli qaynonasi Ra’noni xam yitarib unga aralashmasligini aytganini, shunda qaynonasi yerga o’tirib yana sog’ligi bo’lmasdan qolganini, so’ng qayni ukasi Mirabror qo’lidagi shoxani turmush o’rtog’i Axrorni qorniga tiqmoqchi bo’lib unga tashlanganida, turmush o’rtog’i Axror uni shoxasini o’ng qo’li bilan to’sganida, uni qo’lidagi shoxasini temir qismi turmush o’rtog’i Axrorning o’ng qo’lini old va orqa kaft soxalariga kirib qo’li qonay boshlaganini, shunda ham qayniukasi Mirabror turmush o’rtog’i Axrorga yana shoxani tanasiga va yuziga suqib olganini, shunda turmush o’rtog’i Axror qochganida qaynotasi Mirsoli uni orqasidan yugirib borib uni urmoqchi bo’lganida, shu yerda oyog’i temirlarga tiralib yiqilganligini va yana o’rnidan turib oqsoqlanib yurganligini ko’rganini, shu vaqtda turmush o’rtog’i Axrorni o’ng qo’lidan sharillab qon kelganini, shunda turmush o’rtog’i Axror o’zini qo’l telefonidan akasi Akbarga qo’ng’iroq qilib, unga otasi Mirsoli bilan ukasi Mirabrorlar uni urib tan shikasti yetkazganligini, unga yordam berishligini, TTYO mashinasini chaqirishini aytganini va o’zi yugurib ko’chaga chiqib ketganini, qayniakasi Akbarni xovliga kelganligini ko’rmaganini bayon qildi.

Bundan tashqari, sudlanuvchilarning aybi:

-Koson tuman IIB HPB IIO TP profilaktika inspektori Z.Abduraxmonovning bildirgisi (1 jild i.v. 3);

-tushuntirish xatlari (1 jild i.v. 7-11);

-RSTEIMKF Koson tuman STEBning 08.11.2021 yildagi 376/277-Mar sonli ekspertiza xulosasi (1 jild i.v. 15-17);

-RSTEIMKF Koson tuman STEBning 08.11.2021 yildagi 375/276-Mar sonli ekspertiza xulosasi (1 jild i.v. 21-22);

-RSTEIMKF Koson tuman STEBning 04.11.2021 yildagi 377/101-Xuj/Mar sonli ekspertiza xulosasi (1 jild i.v. 36-38);

-hodisa sodir bo’lgan joyni ko’zdan kechirish bayonnomasi, chizma va fotosuratlar (1 jild i.v. 39-57);

-Mirzayev Ahror Mirsoliyevich tomonidan taqdim qilingan bir dona DVD diskni va 12 dona fotosuratlarni ko’zdan kechirib ko’rish va olib qo’yish to’g’risidagi bayonnoma (1 jild i.v. 96-104);

-Mirzayev Mirabror Mirsoliyevich tomonidan taqdim qilingan bir dona DVD diskni va 5 dona fotosuratlarni ko’zdan kechirib ko’rish va olib



qo'yish to'g'risidagi bayonnoma (1 jild i.v. 105-110) hamda jinoyat ishida to'plangan boshqa dalillar bilan o'z isbotini topdi.

Sud, tergov organi tomonidan sudlanuvchi Mirzayev Mirsoli va Mirzayev Mirabrorlar bir guruhga birlashib, Mirzayev Ahror va Mirzayev Akbarlarning badaniga qasddan o'rtacha og'ir shikast yetkazganligi epizodi bo'yicha ularning xarakati JK 105-moddasi 2-qismining "i" bandi bilan, sudlanuvchi Mirzayev Ahror va Mirzayev Akbarlar bir guruhga birlashib, Mirzayev Mirsoli va Mirzayev Mirabrorning badaniga qasddan og'ir shikast yetkazganligi epizodi bo'yicha ularning xarakati JK 104-moddasi 2-qismining "k" bandi bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilgan bo'lsa-da, sudlanuvchi Mirzayev Mirsoli va Mirzayev Mirabrorlarning qilmishi JK 105-moddasi 2-qismining "g,m" bandlari bilan, sudlanuvchi Mirzayev Ahror va Mirzayev Akbarlarning qilmishi JK 104-moddasi 2-qismining "v,l" bandlari bilan noto'g'ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblaydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 105-moddasi 2-qismining "m" bandi va 104-moddasi 2-qismining "l" bandida – qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni ishlatib, qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 iyuldagi "Qurol to'g'risida"gi Qonuni mazmuniga ko'ra, sovuq qurol deganda, shikast yetkaziladigan obyekt bilan bevosita to'qnashish chog'ida odamning jismoniy kuchi yordamida nishonni urish uchun mo'ljallangan qurol; sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolar deganda esa, kasbiy, ishlab chiqarish yoki sport faoliyatida yoxud xo'jalik-maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan, sanoat usulida yoki qo'lbola tarzda yasalgan tig'li, kesuvchi ashyolar (pichoqlar, bigizlar va boshqa uchi o'tkirlangan sanchiladigan, kesuvchi ashyolar), jismoniy kuch ishlatganda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan ashyolar (beysbol bitalari, softbol o'yini uchun bitalar) tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002 yil 14 iyundagi "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 9-sonli qarorining 4-bandi talabiga ko'ra, sovuq qurol deganda, o'z mohiyatiga ko'ra, insonning hayoti va sog'ligiga qarshi ishlatish uchun mo'ljallangan, sud-kriminalistik ekspertizasi xulosasiga muvofiq sovuq qurol deb topilgan narsalar tushuniladi.

Mazkur ish bo'yicha garchand sudlanuvchilar o'zlarining ko'rsatuvlarida bir-birlariga qarshi tayoq va temir bo'lagi bilan urib tan jarohati yetkazganlikda ko'rsatuv berishgan bo'lsalarda, biroq hech qanday temir yoki tayoq bo'laklari ashyoviy dalil deb e'tirof etilmagan, bundan tashqari sud-kriminalistik ekspertizasi xulosasiga muvofiq sovuq qurol deb topilganligini tasdiqlovchi dalillar ishda mavjud emas.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 27 iyundagi "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar



bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 6-sonli qarorining 9-bandida: "Badanga qasddan yetkazilgan og'ir yoki o'rtacha og'ir shikastni o'ta shafqatsizlik bilan yetkazilgan deb tegishli JK 104-moddasi ikkinchi qismining «v» bandi, 105-moddasi ikkinchi qismining «g» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun aybdorda jabrlanuvchiga bunday shikastni alohida jismoniy yoki ruhiy azob beruvchi usulda yetkazishga nisbatan qasd mavjud bo'lganligini aniqlash lozimligi, o'ta shafqatsizlik, jumladan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazishga sabab bo'lgan azoblash va qiynashda namoyon bo'lishi, bunda azoblash deganda, uzoq vaqt ovqat, suv yoki issiqlikdan mahrum qilish kabi xo'rovchi harakatlar, yoxud insonni sog'liq uchun ziyon yetkazuvchi sharoitga solish yoki unda qoldirish va h.k. tushunilishi lozimligi, qiynash deganda, ko'p marta yoki uzoq vaqt davomida og'riq yetkazuvchi, jumladan, muttasil do'pposlash, chimchilash, kesish, o'tmas yoki o'tkir-sanchiluvchi (kesuvchi) predmetlar bilan ko'p sonli, biroq chuqur bo'lmagan jarohatlar yetkazish, elektr yoki termik omillar orqali ta'sir ko'rsatish va h.k. bilan bog'liq harakatlar tushunilishi lozimligi, jabrlanuvchi uchun yaqin shaxslar ko'z o'ngida uning badaniga qasddan og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish holati ham basharti bunda aybdor o'z harakatlari bilan ularga alohida azob berayotganligini anglagan bo'lsa, aybdor tomonidan namoyon etilgan o'ta shafqatsizlik ifodasi sifatida baholanishi lozim" deb tushuntirish berilgan.

Ish holatlariga ko'ra, hodisa sodir bo'lgan kuni Mirzayev Mirsoli va Mirzayev Mirabrorlar bir guruhga birlashib, Mirzayev Ahror va Mirzayev Akbarlarning badaniga qasddan o'rtacha og'ir shikast yetkazgan, o'z o'rnida voqea kuni sudlanuvchi Mirzayev Ahror va Mirzayev Akbarlar bir guruhga birlashib, Mirzayev Mirsoli va Mirzayev Mirabrorning badaniga qasddan og'ir shikast yetkazgan bo'lsalarda, ular ushbu jinoyatni tezda sodir etganligi bois, ularning harakatlarini bir-birlariga azob berayotganligini anglagan holda o'ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan deb baholab bo'lmaydi.

Shu munosabat bilan sud, sudlanuvchi Mirzayev Mirsoli va Mirzayev Mirabrorlarning aybidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 105-moddasi 2-qismining "g,m" bandlarini, sudlanuvchi Mirzayev Ahror va Mirzayev Akbarlarning aybidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 104-moddasi 2-qismining "v,l" bandlarini chiqarib, ishning shu qismini harakatdan tugatishni lozim topdi.

Sud sudlanuvchi Mirzayev Mirsoli Qosimovichga nisbatan jazo tayinlashda aybiga qisman iqror va chin ko'ngildan pushaymonligini Jinoyat kodeksining 55-moddasiga asosan jazoni yengillashtiruvchi holat, g'arazli va boshqacha past niyatlarda jinoyat sodir etganligini JKning 56-moddasiga asosan jazoni og'irlashtiruvchi holat deb baholab, uning shaxsini, yoshini, ilgari sudlanmaganligini, jinoyat sodir etishdagi roli va ishtirokchilik darajasini, jinoyat sodir etish paytidagi va jinoyat sodir etilganidan keyingi xulq-atvorini inobatga olib, unga JK 57-moddasini qo'llagan holda JK 105-moddasi 2-qismining "i" bandi bilan modda sanksiyasida ko'rsatilganidan



ham kamroq ozodlikni cheklash jazosi tayinlashni, uning zimmasiga sutkaning kech soat 22:00dan ertalab soat 06:00ga qadar yashash joyidan chiqishini cheklash; muayyan joylarga, ya'ni klub, diskoteka va barlarga bormaslik hamda ommaviy tadbirlarda ishtirok etmaslik; nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash yoki ish joyini o'zgartirmaslik kabi qo'shimcha taqiq (cheklash)lar yuklashni, jazoni ijro etishni Koson tuman IIB Probatsiya guruhi zimmasiga yuklatishni, jazo muddatini u hisobga qo'yilgan kundan boshlab hisoblashni, jazoni uning Koson tumani, "Raximso'fi" MFY. hududidagi yashash uyida o'tattirishni, uning ehtiyot chorasini bekor qilishni lozim topdi.

Sud sudlanuvchi Mirzayev Mirabror Mirsoli o'g'liga nisbatan jazo tayinlashda aybiga qisman iqrор va chin ko'ngildan pushaymonligini Jinoyat kodeksining 55-moddasiga asosan jazoni yengillashtiruvchi holat, g'arazli va boshqacha past niyatlarda jinoyat sodir etganligini JKning 56-moddasiga asosan jazoni og'irlashtiruvchi holat deb baholab, bir oiladan to'rt kishi sudlanayotganiligi, ularning bir-birlariga da'volari yo'qligini inobatga olib, unga JK 57-moddasini qo'llagan holda JK 105-moddasi 2-qismining "i" bandi bilan modda sanksiyasida ko'rsatilganidan ham kamroq ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni, JKning 61-moddasiga asosan jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2021 yil 7 sentabr kunidagi hukmiga ko'ra tayinlanib, o'talmay qolgan 2 oy 14 kun ozodlikdan cheklash jazosining bir kunini ozodlikdan mahrum qilish jazosining bir kuniga tenglashtirib hisoblab, JKning 60-moddasi tartibida yangi hukm bo'yicha tayinlangan jazoga qisman qo'shish yo'li bilan uzil-kesil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni, jazoni manzil-koloniyalarda o'tattirishni, jazo muddatini u qamoqqa olingan kundan boshlab hisoblashni, uning ehtiyot chorasini aslicha qoldirishni lozim topdi.

Sud sudlanuvchi Mirzayev Ahror Mirsoli o'g'liga nisbatan jazo tayinlashda aybiga qisman iqrор va chin ko'ngildan pushaymonligini Jinoyat kodeksining 55-moddasiga asosan jazoni yengillashtiruvchi holat, g'arazli va boshqacha past niyatlarda jinoyat sodir etganligini JKning 56-moddasiga asosan jazoni og'irlashtiruvchi holat deb baholab, bir oiladan to'rt kishi sudlanayotganiligi, ularning bir-birlariga da'volari yo'qligini inobatga olib, unga JK 57-moddasini qo'llagan holda JK 104-moddasi 2-qismining "k" bandi bilan modda sanksiyasida nazarda tutilganidan ham kamroq ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni, jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'tattirishni, jazo muddatini u qamoqqa olingan kundan boshlab hisoblashni, uning ehtiyot chorasini aslicha qoldirishni lozim topdi.

Sud sudlanuvchi Mirzayev Akbar Mirsoli o'g'liga nisbatan jazo tayinlashda aybiga qisman iqrор va chin ko'ngildan pushaymonligini Jinoyat kodeksining 55-moddasiga asosan jazoni yengillashtiruvchi holat, g'arazli va boshqacha past niyatlarda jinoyat sodir etganligini JKning 56-moddasiga asosan jazoni og'irlashtiruvchi holat deb baholab, bir oiladan to'rt kishi sudlanayotganiligi, ularning bir-birlariga da'volari yo'qligini inobatga olib,



unga JK 57-moddasini qo'llagan holda JK 104-moddasi 2-qismining "k" bandi bilan modda sanksiyasida nazarda tutilganidan ham kamroq ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni, jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2021 yil 7 sentabrdagi hukmiga ko'ra, JK 109-moddasining 2-qismi bilan tayinlanib o'talmay qolgan 1 oy 14 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosidan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish to'g'risidagi jinoyat ishlari bo'yicha Muborak tuman sudining 2021 yil 11 oktabrdagi ajrimi bilan belgilangan jazoning shartliligi bekor qilib, o'talmay qolgan ozodlikdan mahrum qilish jazosini JKning 60-moddasi tartibida yangi hukm bo'yicha tayinlangan jazoga qisman qo'shish yo'li bilan uzil-kesil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni, jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'tattirishni, jazo muddatini u qamoqqa olingan kundan boshlab hisoblashni, uning ehtiyot chorasini aslicha qoldirishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 454-457, 460, 463, 465-468, 471, 473-moddalariga amal qilib, sud,

HUKM QILDI:

Mirzayev Mirsoli Qosimovich O'zbekiston Respublikasi JK 105-moddasi 2-qismining "i" bandi bilan aybli deb topilsin.

Mirzayev Mirsoli Qosimovichga O'zbekiston Respublikasi JK 105-moddasi 2-qismining "i" bandi bilan JK 57-moddasini qo'llab, 2 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlansin.

Mirzayev Mirsoli Qosimovichga sutkaning kech soat 22-00dan ertalab soat 06-00ga qadar yashash joyi Koson tumani Raximso'fi qishlog'idan chiqish cheklansin.

Unga quyidagi cheklovlar yuklatilsin:

-muayyan joylarga, ya'ni klub, diskoteka va barlarga bormaslik hamda ommaviy tadbirlarda ishtirok etmaslik;

-nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash yoki ish joyini o'zgartirmaslik;

-agarda yashash yoki ish joyi o'zgarib qolsa, bu haqda nazorat qiluvchi organni xabardor qilish.

Jazoni ijro etish Koson tuman IIB zimmasiga yuklatilsin va jazo muddati hisobga qo'yilgan kundan boshlab hisoblansin.

M.Mirzayevga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot chorasi bekor qilinsin.

Uning "qamoq" ehtiyot chorasi bekor qilinib, darhol sud zalida qamoqdan ozod qilinsin.

Mirzayev Mirabror Mirsoli o'g'li O'zbekiston Respublikasi JK 105-moddasi 2-qismining "i" bandi bilan aybli deb topilsin.

Mirzayev Mirabror Mirsoli o'g'liga O'zbekiston Respublikasi JK 105-moddasi 2-qismining "i" bandi bilan JK 57-moddasini qo'llab, 2 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.



Jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2021 yil 7 sentabrdagi hukmi bilan tayinlanib, o'talmay qolgan 2 oy 14 kun ozodlikni cheklash jazosi JKning 61,60-moddasiga asosan qisman qo'shib, Mirzayev Mirabror Mirsoli o'g'liga 2 (ikki) yil 1 (bir) oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.

Jazo manzil koloniyalarda o'tattirilsin. Jazoni o'tash muddati 2021 yil 15 noyabr kundan boshlab hisoblansin. Sudlanuvchi M.Mirzayevning ehtiyot chorasi aslicha qamoqda qoldirilsin.

Mirzayev Ahror Mirsoli o'g'li O'zbekiston Respublikasi JK 104-moddasi 2-qismining "k" bandi bilan aybli deb topilsin.

Mirzayev Ahror Mirsoli o'g'liga O'zbekiston Respublikasi JK 104-moddasi 2-qismining "k" bandi bilan JK 57-moddasini qo'llab, 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.

Jazo qattiq tartibli koloniyalarda o'tattirilsin. Jazoni o'tash muddati 2021 yil 15 noyabr kundan boshlab hisoblansin. Sudlanuvchi A.Mirzayevning ehtiyot chorasi aslicha qamoqda qoldirilsin.

Mirzayev Akbar Mirsoli o'g'li O'zbekiston Respublikasi JK 104-moddasi 2-qismining "k" bandi bilan aybli deb topilsin.

Mirzayev Akbar Mirsoli o'g'liga O'zbekiston Respublikasi JK 104-moddasi 2-qismining "k" bandi bilan JK 57-moddasini qo'llab, 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.

Jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2021 yil 7 sentabrdagi hukmiga ko'ra, JK 109-moddasining 2-qismi bilan tayinlanib o'talmay qolgan 1 oy 14 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosidan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish to'g'risidagi jinoyat ishlari bo'yicha Muborak tuman sudining 2021 yil 11 oktabrdagi ajrimi bilan belgilangan jazoning shartliligi bekor qilinsin.

Jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2021 yil 7 sentabrdagi hukmi bilan tayinlanib, o'talmay qolgan 1 oy 14 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi JKning 60-moddasiga asosan tayinlangan jazoga qisman qo'shib, Mirzayev Akbar Mirsoli o'g'liga 3 (uch) yil 1 (bir) oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.

Jazo qattiq tartibli koloniyalarda o'tattirilsin. Jazoni o'tash muddati 2021 yil 15 noyabr kundan boshlab hisoblansin. Sudlanuvchi A.Mirzayevning ehtiyot chorasi aslicha qamoqda qoldirilsin.

Hukmdan norozi tomon, hukm e'lon qilingan kundan, sudlanuvchi va jabrlanuvchilar hukm nusxasini olgan kundan boshlab, yigirma sutka ichida shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov xay'atiga apellyatsiya tartibida shikoyat berishga, prokuror esa protest bildirishga haqlidirlar.

Raislik qiluvchi

(imzo)

G'Ostonov



Asliga to'g'ri:

Хужжат имзоланган: Оstonов Ғайбулло Хайруллаевич, 21.04.2022

